“Navoiyazot” AJda mashqlar o'tkazildi

// 24.04.2015
https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/navoiyazotda-mashqlar-utkazildi

2015 yil 22 aprelda “Navoiyazot” AJda korxonaning fuqaro muhofazasi tuzilmalarining Navoiy viloyatiFavquloda vaziyatlar boshqarmasi xizmatlari bilan birgalashib hamkorlikda ishlash ko'nikmalarni takomillashtirish bo'yicha ko'rgazmali maxsus-taktik mashqlar o'tkazildi.

Mashqlar davomida texnogen xususiyatga ega shartli favquloda vaziyatni bartaraf etish bo'yicha vazifalar bajarildi.

Maxsus ko'rgazmalari taktik mashqlarga 220 nafar kishi hamda 20-ta maxsus va muhandislik texnika vositalari jalb etildi.